

**O‘SMIR QIZLAR O‘RTASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH****Qobilova Azizaxon Baxodir qizi**

Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti

2-son davolash fakulteti talabasi

**Kuchkarova oysha Oltibayevna**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Pedagogika-psixologiya kafedrası

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida batafsil ma‘lumot berilgan. Shuningdek, o‘smir qizlar o‘rtasida ham kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha sa‘y-harakatlar haqida qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kitobxonlik, madaniyat, kitob, nutq, fikrlash, klassifikatsiyalash, yoshlar.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish borasidagi ishlar ko‘lami sifat darajaga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o‘tamoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko‘zda tutilgan. I bosqich – 2020-2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillash-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; II bosqich –2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash; III bosqich –2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan. Shuningdek, qizlarni ilm olishi uchun yanada ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuningdek, aholi, avvalo, o‘smir qizlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgan. Kitob o‘qish o‘smir qiz va o‘g‘ilning nafaqat keyingi adabiy rivojlanishida, balki uning ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi farqni anglashida, insondagi go‘zallik, tabiat, san‘at va hayot haqidagi boshqa tasavvurlarini shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga asosan, o‘tgan o‘n-o‘n besh yil davomidagi ilmiy-uslubiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik sohasida asosiy e‘tibor uning ijtimoiy-pedagogik jihatlariga, shuningdek, ilmiy, o‘quv va boshqa turdagi matnlarni izohlash usullari va texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shu bilan birga, kichik maktab o‘quvchilarining adabiy rivojlanishi muammosi eng kam o‘rganilgan soha bo‘lib qolmoqda. Shu sababli yoshlarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kun pedagoglari oldidagi dolzarb

vazifalardan biridir. O'smir qizlarda balki, yosh kitobxonlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun birinchi navbatda quyidagi ushlarni qilgan ma'qul.

- maktabdagi adabiy ta'limining boshlang'ich bosqichida badiiy matnni o'qish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi uslubiy shart-sharoitlarni aniqlash va tavsiflash;
- maxsus diagnostik test o'tkazish orqali o'quvchilarni o'zlashtirish qobiliyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish;
- har bir guruhdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatiga mos bo'lgan kitoblar (ertak, hikoya, bolalar adabiyoti) ro'yxatini tuzib ularning ota-onalari bilan maslahatlashgan ish olib borish;
- Kichik yoshdagi o'quvchilarda diagnostika testini o'tkazish orqali ularning kitob o'qish tezligini, o'qigan asarini o'zlashtirish qobiliyatini, og'zaki nutqining rivojlanish ko'rsatkichlari kabi bir qancha parametrlar orqali uzluksiz monitoring tizimini shakllantirib borish;

Bu yo'sinda ish olib borish orqali yosh kitobxonlarning kitob o'qish qobiliyatini bosqichma-bosqich oshirib borishga erishish mumkin. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim tizimidagi fikr va g'oyalarini qabul qiluvchi virtual tizim yaratish zarur. Chunki muammo ichida yurgan shaxs boshqalarga nisbatan ko'proq tajribaga ega bo'ladi. Muntazam ravishda zamonaviy boshlang'ich tizimining maqsadli strategiyalari va yo'riqnomalariga tuzatishlar kiritib borish zarur. Chunki zamonaviy axborot texnologiyalari va o'qitish usullari kundan-kunga takomillashib bormoqda. Yoshlarning kelgusi faoliyati uchun boshlang'ich maktab davrida ularning fiziologik jihatlariga ham e'tibor qaratmoq lozim. Ularning jismoniy sog'lom bo'lishi uchun har kuni ochiq havoda jismoniy mashqlar bajarishini tashkillashtirish, xotirasini kuchaytirish uchun esa har kuni yangi atamalarni yodlab borishini nazorat qilish zarur. Shuningdek ularni mehnatsevarlikka o'rgatish ham boshlang'ich maktab davridanoq boshlanishi kerak. Badiiy asarni to'liq idrok etish va kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining adabiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali uslubiy vositalardan foydalanish yuqori natijalarga olib keladi. Har bir bosqich o'quvchilari bilishi kerak bo'lgan umumiy va terminologik so'zlar lug'atini tuzish va ularni o'quvchilarga o'rgatib borish o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi. Yosh o'g'il-qizlarning dars jarayoni va ularda badiiy o'qish saviyasini oshirish uchun barcha zaruriy o'quv-uslubiy va texnik materiallar bilan ta'minlash zarur.

“O'smir qiz va o'g'illarga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”,-deydi yurtboshimiz. Ta'lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchi ham, o'qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lmagan o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyog sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la anglolmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o'qishga mehr qo'ymaydi. Kam

o'qishning salbiy oqibatlari juda ko'p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi; ma'naviy qashshoqlik va o'zlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi; savodxonligi past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi. Madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'g'rilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflilik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning isboti sifatida aytishimiz mumkin, ona tili va adabiyot darslarida insho, bayon, diktant yozdirganimizda, aksariyat ta'lim oluvchilarning yozma ishida juda ko'p imlo, ishoraviy va uslubiy xatolar uchrashiga, ko'pchilik o'quvchilarning ijodiy ishlari saviyasi juda past ekanligiga guvoh bo'lamiz. Hatto darsda o'rganilayotgan badiiy parchalarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ularning estetik ta'siri haqida bahs-munozara qilishda o'quvchi jo'yali fikr aytolmaydi, munosabat bildirolmaydi. O'smir qiz bilan suhbat o'tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o'qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro'yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo'ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga har hafta bitta ma'lum nomdagi badiiy asarni o'qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh yosh qizlari bilan o'sha asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini. o'rganib chiqamiz.

Yoshlardagi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda albatta hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar yani, kitobxonlik tadbirlari ularda turli xildagi vaziyatlarni idrok etish va ularni bartaraf imkonini beradi. Ayniqsa, oila davrasida birgalikda o'qish va o'qilgan ma'lumotlarni tahlil qilish bir qancha afzalliklarni keltirib chiqaradi. O'rganishlar asosida bolalarda oila va maktab hamkorligida quyidagi ishlar amalga oshirilsa, ayniqsa, o'smir qizlarning ning kitob va kitobxonlikka bo'lgan qiziqishi ortib samarali natijalarga erishish mumkin. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan birga, yoshlarda vatanparvarlik, sadoqat, qadriyatlarga sodiqlik kabi jihatlarni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, kitoblarni tanlash, maqsadga muvofiqligi va sohaviy tegishliligi bo'yicha klassifikatsiyalash zarurati ham paydo bo'lmoqda. Shu sohalarini ham hisobga olsak kitobga qiziqish va uni o'qishdagi qulayliklar yaratilgan bo'lar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi PQ-3271-son qarori
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti //O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent. – 2013
- 3.Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. – Toshkent, 2018. 4.Madatov Xabibulla Axmedovich YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences ISSN 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 17 | 2023
- 5.Maysara Eshniyazova "Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish - davr talabi" «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal .ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5.
6. www. ziyonet.uz.